

ISLOHOTLAR- HAYOTIMIZ, IJODIMIZ QUYOSHI

Mirzayeva Zilolaxon Eldorjon qizi

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani XTB ga qarashli 20-umumiy o'rta ta'lim maktabi Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar:

cholg'u, musiqa, kuy, o'zlashtirish, mas'uliyat, o'qituvchi, o'quvchi, nota, milliylik, kasb.

Annotation

Ushbu maqolada "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorining musiqa o'qituvchilariga qo'ygan majburiyatlari va imkoniyatlari xususida so'z borgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Bugungi kun o'qituvchilaridan zamonga mos ravishda har tomonlama mukammal bo'lish, o'z kasbining ustasi va fidoiysi bo'lish talab qilinadi. Buning uchun o'qituvchida sabr va matonat, bilim va yuksak tafakkur bo'lishi kerak. Ayni paytda, bilimli o'qituvchi o'quvchilarga belgilangan bilim, malaka, ko'nikmalarni singdirishi uchun zarur shart sharoitlar talab qilinadi. Ko'rinadiki, bugungi kunda ta'lim sohasini isloh qilish va rivojlantirishga doir ko'plab qarorlar qabul qilinmoqda. Mana shunday qarorlardan biri 2022-yil 2-fevralda "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hisoblanadi. Bu qaror musiqa fani o'qituvchilarining zimmasiga bir qancha katta mas'uliyat yukladi. Jumladan, 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar belgilandi. "Qaror" ga muvofiq milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o'rgatilishi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritilishi; musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliyot-garaklari va fakultativ darslari o'tkazilishi; mazkur qarorga 1-ilovadagi ro'yxatda keltirilgan milliy cholg'ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasida kuy ijro etish mahoratiga ega bo'lish musiqa fani o'qituvchilari uchun majburiy hisoblanishi; musiqa fani uchun ajratilgan o'quv soatlari doirasida "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bundan tashqari, madaniyat va san'at sohasida iste'dodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qo'llab-quvvatlash, ta'lim muassasalarini milliy cholg'ular, musiqa darsliklari, notalar to'plamlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlashning yaxlit tizimini yaratish maqsadida, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq bir nechta chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilandi. Notalar to'plamlari va maxsus musiqiy adabiyotlar bilan ta'minlash umumta'lim maktablarini darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash tizimiga kiritiladi.

Xalq Ta'limi Vazirligi tasarrufidagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari ta'minlanishi lozim bo'lgan milliy musiqa cholg'u asboblari ro'yxatiga dutor, do'mbira, doira, tanbur, g'ijjak, nay etib belgilandi. Ushbu "Qaror" musiqa fani o'qituvchilariga bir necha mas'uliyat yukladi. Abdulla Oripov o'qituvchilar haqida: "Muallim haqida so'zim ushbu dir:

Muallim kamolot ichra ko'zgudir",- deb she'r bitgan. O'quvchilarni kamolot sari yetaklab, ular komilligiga hissa qo'shish bugungi zamon ustozlarining faxrli burchidir va burch yo'lida mashaqqatli yo'ldan yurib bilim berish eng oliy baxtdir.

Milliy cholg'u asboblarda kuy chala olish mahoratining o'zlashtirish natijasi o'quvchi shahodatnomasiga qo'yilishi belgilandi. Bu "Qaror" esa o'quvchiga musiqa fanining o'rni beqiyos ekanligini tushuntirdi. Musiqa fani o'qituvchilari o'z sohalarining imkoniyatlarini keng qo'llagan holda o'zlari ustida ishlashlari uchun imkoniyat va majburiyat yaratildi. Zero, yaratilajak barcha imkoniyatlar, islohotlar, shart-sharoitlar o'sib kelayotgan yosh avlod uchun, Vatan ravnaqi uchundir. Bu yo'lda o'zining mehnat, kuch-g'ayratini safarbar etish esa oliy burchdir. Prezident Shavkat Mirziyoyev musiqani naqadar beqiyos kuch ekanligini e'tirof etib: "San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlariga hurmati baland bo'ladi.

Va men ishonaman, ular dunyoni ma'naviy tanazzuldan qutqarishga qodir bo'lgan, o'zaro ahillik va birdamlikni ulug'lovchi avlod bo'lib maydonga chiqadi.

Shu ma'noda, musiqa – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Haqiqiy san'atni, sof va boqiy musiqani faqat Parvardigori olamning marhamati bilan hazrati Inson yaratadi",-deb aytadi.

Yosh avlodga o'zlikni singdirishda milliy urf-odatlarimizni anglatish kerakligi azaldan uqtirib kelingan. Milliylikni targ'ib etishda musiqa asboblarning ham o'rni beqiyos. Biror mamlakatga borib u yerda o'z milliy cholg'u asbobi ila tanlovlarda ishtirok etib sovrinli o'rin olish nafaqat ijrochining, balki mamlakatning ham yutug'idir. Ayni paytda g'ururi hamdir. Mana shunday yuksak marralarni ko'zlagan holda bir qator choralar ko'rildi va buning natijasida musiqa o'qituvchilari zimmasiga mas'uliyat yuklandi. Bu mas'uliyat o'quvchilar iste'dodini yuksaltirish, zehni o'stirish, qobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chira-tadbirlar to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Yangi O'zbekiston, 2022-yil.3fevral.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Sharq taronalari" o'n ikkinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi tabrik so'zi. Xalq so'zi, 2019.27avgust.
3. www.kitob.uz
4. Www.ziyouz.com
5. Www.kh.davron.uz